



JEYMS JOYSNING TAFAKKURIDAN OZIQLANGAN O'ZBEK ADIBLARIDA MIFOLOGIK TALQIN MODUSI

Raxmatullayev Ziyodullo Xabibullayevich
Alfraganus universiteti tadqiqotchisi,

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil
Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil
Jurnal soni: 17-B
Maqola raqami: 12
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1441>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS
mif, obraz, talqin, idrok, uslub, mezon, modus, sistema.

ANNOTATSIYA
Mazkur maqolada Jeyms Joys ijodiy tafakkuri ta'sirida shakllangan o'zbek adabiyotidagi mifologik talqin modusi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda mifning zamonaviy roman poetikasidagi o'rni, uning estetik sistema va konseptual mezon sifatidagi funksiyasi yoritiladi. Ayniqsa, Joysning mifologik universalizmga asoslangan badiiy tafakkuri, ong oqimi uslubi, ramziy va tush motivlari orqali voqelikni idrok etish tamoyillari o'zbek adiblari ijodida qanday aks etgani qiyosiy aspektida ochib beriladi.
Maqolada Nazar Eshonqul hamda qator mustaqillik davri yozuvchilarining asarlari misolida mifopoetik qatlam, ongosti kechinmalari, ramz va timsollarning funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, "Go'ro'g'li" romani va Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asari o'rtasidagi poetik uyg'unlik, mifning individual va ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli, shaxs "men"ining mavjudlik va tanazzul oraliq'idagi izlanishlari ochib beriladi.
Shuningdek, maqolada mifning tarixiy xotira, milliy ong va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq konseptual xarakteri asoslanadi. Tush va ramzlarning psixanalitik talqini (Yung nazariyasi asosida) hamda badiiy tafakkur dialektikasi masalalari yoritilib, mifning zamonaviy o'zbek romanida estetik va falsafiy tafakkur shakli sifatida namoyon bo'lishi isbotlanadi. Natijada, Joys tafakkuridan oziqlangan o'zbek adabiyotida mifologik talqin modusi nafaqat shakliy tajriba, balki milliy o'zlikni anglash va tarixiy-ijtimoiy haqiqatni badiiy idrok etish vositasi sifatida namoyon bo'lishi ilmiy asosda xulosalanadi.

Kirish

Inson o'z yolg'izligini his etgani sayin, jamiyatda odamlar orasiga kirib borishga imkon topadi. Bu imkon uning botiniy va ruhiy olamini nafaqat boyitadi, balki ularni yanada rang-barang qiyofada rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Mif – yangi roman uchun andoza, qolip, sistema va ifoda uslubining o'zi ekanligi ayonlashib bo'ldi. Demak, mifdan romanga, romandan insonga qarab yurishlar tezlashdi. Bularning barchasida insonning hayoti, haqiqati, muhabbati, Allohni tanishga bo'lgan intilishlari qabarib ko'rinadi. Mif – yangi zamonga ochilgan daricha, yo'l va konsepsiyadir. Ana shu mezonlar umumiyli Jeyms Joyslar avlodida oltin harflar bilan bitilgan estetik qiymatning o'zginasidan boshqa narsa emas! "Xarakter yaratish – sirli jarayon, hatto aytish mumkinki, ehtimol, bu jarayon xarakteri yaratilayotgan mute yoki o'jar ob'ektlardan ko'ra xarakter yaratayotgan odamning o'zi uchun sirliroqdir. Bu jarayonga ish ochilmagan, u hujjatlar bilan tasdiqlanmagan va unga aniq bir ta'rif berish amrimahol. Har qanday ijod – u adabiyot bo'ladimi yoki hayotdagi ijod bo'ladimi, baribir, birday sirli va bilib bo'lmaydigan hodisa va u to'g'rida ko'ngilga kelgan narsani gapiraverishga birday rag'batlantiradi. Ammo mening diqqatimni bu mavzuga jalb qilgan sabab shuki, men eski maktabga mansub ko'pchilik odamlar qatori xarakterlarning hayotiyilgini har qanday biografiya, pe'sa yoki romanning umrbog'iyilgini ta'minlovchi asosiy omil, deb hisoblayman"¹.

Adabiyotlar tahlili

Mifologik talqin modusi va uning zamonaviy roman poetikasidagi o'rni masalasi jahon va o'zbek adabiyotshunosligida turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Ushbu maqola doirasida ko'rib chiqilgan manbalar asosan uch qatlamga ajratilishi mumkin: 1) G'arb adabiy-estetik tafakkuri va modernizm nazariyasi; 2) o'zbek romanlarida badiiy tafakkur va poetika masalalari; 3) Nazar Eshonqul hamda mustaqillik davri adiblari ijodiga oid tadqiqotlar.

Avvalo, Jeyms Joys ijodini anglashda modernistik tafakkur va xarakter yaratish muammolariga oid nazariy qarashlar muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Jon Golsuorsining "Adabiyotda xarakter yaratish" asarida xarakter fenomenining sirli va murakkab jarayon ekani ta'kidlanib, badiiy obrazning hayotiyilgi asarning umrbog'iyilgini ta'minlovchi omil sifatida talqin qilinadi. Ushbu qarash Joys poetikasidagi obraz va ong oqimi texnikasini anglashda muhim

nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Chunki Joys romanlarida xarakter tashqi voqelikdan ko'ra ichki ong jarayonlari orqali ochiladi².

Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asari esa bevosita mifologik talqin va ong oqimi uslubining amaliy namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Asarda mif (Dedalus timsoli) individual ong va milliy tarix bilan qorishib ketadi. Tadqiqotchilar Joys poetikasini "mifologik metod" (T.S. Eliot ta'biri bilan) asosida shakllangan deb baholaydilar. Mazkur metod voqelikni tartibga solish, tarixiy xaosni estetik sistemaga aylantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi³.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy tafakkur va roman poetikasi masalalari prof. Damin To'rayevning "O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi" asarida keng yoritilgan. Unda g'oyaviy-estetik ideal, konflikt, syujet va kompozitsiya birligi dialektik aloqada tahlil qilinadi. Bu qarashlar mifologik qatlarning roman strukturasidagi funksional o'rni aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi⁴.

Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasiga bag'ishlangan I. Yoqubov tadqiqotida esa milliy o'zlik, epik makon va tarixiy xotira masalalari ilgari suriladi. Tadqiqotchi mustamlaka davri va tanazzul motivlarini ramziy talqin qilish tamoyillarini ochib beradi. Bu jihatlar Nazar Eshonqul romanlaridagi mifologik ustqurmani talqin qilishda bevosita ahamiyat kasb etadi⁵.

Nazar Eshonqulning "Ijod falsafasi" hamda "Mendan 'men'dan mengacha" asarlarida yozuvchining badiiy-estetik konsepsiyasi, ongosti kechinmalari, tush va mifning badiiy tafakkurdagi o'rni haqida nazariy mulohazalar bildiriladi. U Yung psixanalitik qarashlariga tayangan holda mifni ommaviy ongosti shakli sifatida talqin etadi. Bu qarashlar Joys poetikasidagi tush va ramzlarni tizimi bilan mushtaraklik kasb etadi.

"Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani esa amaliy badiiy material sifatida o'zbek adabiyotida mifologik talqin modusining yorqin namunasi hisoblanadi. Asarda ramz, rivoyat, sud jarayoni kabi struktural unsurlar orqali jamiyat va shaxs ziddiyati mifopoetik qatlamda ochiladi. Tadqiqotchilar tomonidan bu roman norealistik talqin va ramziy tafakkur namunasi sifatida baholanadi⁶.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik va mifopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Jeyms Joys hamda mustaqillik davri o'zbek adiblari (xususan, Nazar Eshonqul) asarlari qiyosiy aspektida o'rganilib, mifologik talqin modusi, ramz va tush motivlarining funksional o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi.

¹ Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. –Т., "Маънавият". 2010. –Б.81.

² Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. –Т., "Маънавият". 2010.

³ Назар Эшонкул. Мендан "мен"дан менгача. –Т.: "Академнашр". 2014.

⁴ Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. –Т, "Университет". 2011.

⁵ Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол.фан.док.дисс.автореферати. –Т., 2018.

⁶ Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол.фан.док.дисс.автореферати. –Т., 2018.

Shuningdek, badiiy matnni struktur-semantik tahlil qilish orqali syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi va ong oqimi elementlarining mifologik qatlam bilan uzviy aloqasi ochib berildi. Mifopoetik yondashuv asosida asarlardagi timsol va arxetiplarning (Yung nazariyasi doirasida) estetik va psixologik mohiyati talqin qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-adabiy va kontekstual tahlil usuli ham qo'llanilib, Joys modernizmi hamda o'zbek adabiyotidagi mustaqillik davri estetik izlanishlari o'zaro bog'liqlikda baholandi. Natijada mifning zamonaviy roman poetikasida konseptual-estetik mezon sifatidagi o'rni ilmiy asosda yoritildi.

Tadqiqot natijalari

“Jeyms Joys o'zini bitta mamlakatga emas, butun insoniyatga daxldor shaxs deb hisoblardi. Hali tug'ilmasdan otasi va onasi orqali peshanasiga bitilgan sargardornlik adibni bir umr tark etmadi. Go'yo taqdir unga olam aro bir umr sargardon bo'lib yurishni ravo kshrganday edi. bolaligini hisoblamaganda ham 20 yoshdan so'ng yashash joyini 200 marta o'zgartirdi. Londonda, Rimda, Syurixda, yana qancha shaharlarda yashadi, ammo bolalik xotiralarini shakllantirgan Dublin haqida yozdi. Dunyoni larzaga solgan “Uliss” bosilib chiqqach ham Joysning moliyaviy hayoti hayoti o'znglanmadi. O'z davrining mashhur yozuvchisi bo'lgach ham topganlari kasalmand qizining va o'zining muolajasidan ortmasdi. Qiziq fakt: oradan 70 yil o'tgach 2009 yili Londonda romanning ilk nusxasi tushirilgan bir nusxasi 442 ming dollarga sotildi”⁷. Darhaqiqat, mana shu ma'lumotning o'ziyoq Joysning qismatida yozish va undan keladigan lazzatning oniy bir uchquni, uning murakkab va metin irodasi mavjudligini dalolatlaydi. Jeyms Joys ana shu tamoyilni katta masshtabda yuzaga chiqara olgan mifologik universal talqinni barqarorlashtirgan estetit yozuvchidir. Joyslar avlodning yutug'i o'zlari vafotidan keyin boshlangani, tirikligida biror-bir ro'shnolik ko'rmay, bu yorug' dunyoni og'ir xastaliklar bilan tark etgani ayon bo'ladi. O'zbek adiblari 90-yillardan keyin Joyslar avlodiga qiziqishi, ular kabi yozish ilmini o'zlashtirishi, milliy mafkura va milliy koloritni berib tasvirlashi borasida katta izlanishlar davri boshlanib ketdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, 70 yil qaramlikda, mutelikda tutib va tiyib turilgan adabiyot mafkurasiz hech qanday manzilga yetib bo'lmasiligini ko'pchilik yaxshi bilishadi. Ayni damda, Nazar Eshonqulning ilk hikoyalari-yu, qissalari, 90-yillardagi “Hayot suvi”(oldin “lahad” deb nomlangan) romani shular jumlasidandir. Nazar Eshonqul avlodi o'zbek adabiyotida “portlash effekti”ni sidir qildi. Adabiy sarzanishlar, teranlashuv, eskilik sarqiti sobiq metodlardan qochish, bir xillikdan yiroqlashish borasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avlod hamisha o'z ustida shaklda ham, mazmunda ham qattiq ishlagan, norealistik talqin uslubini adabiyotagi tasvir metodologiyasiga olib kirgan yozuvchilardan biri sanaladi.

Nazar Eshonqul – mif va roman birligini G'arb adabiy an'analari ta'sirida shakllantirishga katta e'tibor qaratgan yozuvchilardan biridir. U talqin va tasvirdagi obrazlar dinamikasini zimdan quyulqashtiradi. Natijada, o'qirman o'zining his va tuyg'ularini o'stiradi. Jamiyatdagi uzil-kesil o'zgarishlarni katta bir o'zanida qabul qiladi. Demak, yozuvchi kim va nima haqida asar yozmasin, hamisha o'z tuyg'ularini, kechinmalarni, hayot haqiqatini yuzaga chiqara olish manerasi ustida qattiq ishlaydi:

“U sovuq alahsiradi. Tushiga qatl etilayotgan maydon kirgandi. G'animlar bobosi va otasini tutib olgan va endi ularni namoyishkorona qatl etish uchun yig'ilishgandi. Bu hali qallig'ini qatl etmasdan ko'p yillar burun sodir bo'lgan edi. G'animlar qatldan oldin yosh bolalarni maydonga yig'ishgan va o'zlariga g'anim bo'lganlarni ne kunlarga sola olishi mumkinligini bolalarga ham ko'rsatib qo'ymoqchi edi. Ular qatl etilayotgan odamlardan emas, maydonda qator tizilishib, hayrat va qo'rquvda turgan bolalardan qo'rqishar va bu xil “tarbiyaviy soatlar”ni tez-tez o'tkazib turishardi. Maxsus yog'och to'shakka yotqizilgan bobosi va otasining avval bosh chanoq'ini kesib oldilar: bobosi va otasi irodali edi, kesishayotganda biror marta miq etishmadi. Faqat bobosi hamisha biron sirli gap aytishdan oldin, “Sen sirimizni hech kimga aytmay” deb ko'z qisib qo'ygani kabi maydonda unga qoshlarini uchirib qo'ydi – bobosining ko'zlarini yumishga ham holi qolmagandi. Otasi qayrilib ham qaramadi; u fatidan o'g'liga qarab, irodasizlik qilib qo'yishdan qo'rqardi. Bosh chanoqlarni olishgach ikkalasining ham archa bujuriga o'xshash kulrang-oqish miyalari ochilib qoldi. G'animlar qaydandir (avval tayyorlab qo'yishgan chog'i) ikkita ilon topib kelishdi. Ilonlar tinmay dumini likillatlar va tilini chiqarib vishillardi. Jarroh g'anim ilonlarni bosh chanoqqa solib, uni qaytadan joyiga tikib qo'ydi: u ishiga juda usta edi, hammasini ko'z ochib-yumuguncha bajardi”⁸.

XX asrning sobiq ittifoq hududidagi manzarasi o'zbek yozuvchilari-yu, hayotini ham chetlab o'tgan emas. Chunki achitqi va

qo'lansa hidi kelib turadigan makkor tuzumning asl basharasini ochib tashlash uchun ramz muhim edi. Ramzlar, miflar, asotirlar, tashbehlar 90-yillarda bo'y ko'rsata boshladi. Nazar Eshonqulning ilk hikoyalari chiqqan davmi eslaganimizda mifopoetik talqin tihizligi va uning konseptual xarakterda shakllanish bosqichlari bir olamdan boshqa bir olamga ko'cha boshlagan umidvorlik hissini oshirishga qaratiladi. Aynan hayot haqiqati va inson mayllariga olib boradigan yo'lda toblanish, hayotning mazmundor qiyofasini namoyon etishga yetaklaydi. Nazar Eshonqulning “Go'ro'rg'li” romanida mifologik usturma ikki jihati qabarib ko'rinadi. Birinchisi, yozuvchi talqinni birdaniga murakkablashtirmaydi, ikkinchisi obrazlarning botiniy olamiga teran kirib borib, tarix va bugun timsolida baholash mezonini yuzaga chiqaradi.

Prof. Damin To'rayev yozishicha: “Badiiy tafakkurning ikki muhim tomoni dialektik aloqada yuzaga chiqadi: borliqqa, voqelikka munosabat yoki hayotni tushunish va bag'olash, ikkinchisi, shu tushunish orqali san'atkor tafakkurida tug'ilgan fikrni muayyan estetik prinsiplar asosida aks ettirish. Boshqacharoq aytganda, san'atkor g'oyaviy-estetik idealni yuzaga chiqarish jarayonida o'z dunyoqarashi, voqelikni tushinishi, nqutai nazari hamda ijodiy prinsiplarini namoyon etadi. Yozuvchining g'oyaviy pozitsiyasi qanchalik aniq bo'lsa, uning ijodiy prinsiplari shunchalik yorqin bo'ladi. Shu ikkala tomon asarda ijodiy prinsiplar doirasiga kiruvchi badiiylik komponentlari (konflikt, syujet, kompozitsiya, til va boshqalar)dan foydalanish mahorati, san'atkorlikni ko'rsatish orqali yuzaga chiqadi. Har bir asarning badiiy saviyasi ana shu estetik xususiyatlarning dialektik birlikda namoyon etish darajasiga bog'liq”⁹. Keltirilgan lavhada shuni anglash mumkinki, Jeyms Joys badiiy olamining murakkab sintaktik aloqasi roman to'qimalarida ham mifologiyani, ham g'oyani, ham voqelik umumiyiligini idrok etishga keng imkon beradi. Shuni qayd etish lozimki, hayotning Nazar Eshonqul ana shu talqin modusini jiddiy o'zlashtirib, muhit va idrok sarzanishlariga katta diqqat qaratganligida seziladi.

Bu dunyo imtihon maydonidir. Mif orqali inson o'tmish va ajdodlarining qanday yashaganliklarini teran istifoda qilar ekan, yangi odamning o'ziga xos fel'l-atvorini chamalashga zamin hozirlaydi. Mana shu tradisiya mifning potentsial xarakterini yuzaga chiqaradi. Demak, Jeyms Joysdan ilhomlangan har qanday adib, mifga universalizm tamoyili asosida qarash katta masshtabda manozaraga kirishadi. Mif – hayot haqiqatini ochib beruvchi yagona estetik mezon bo'lib konseptual xarakterga evriladi:

“Men – Stiven Dedalus. Otam bilan birga ketyapman, uning ishi-sharifi Saymon Dedalus. Biz hozir Korkdamiz, Irlandiyadamiz. Kork – bu shahar. Biz “Viktoriya” mehmonxonasiga ishga tushdik. Viktoriya. Stiven. Saymon. Stiven. Viktoriya. Ismlar...”

Bolalik xotiralarini to'satdan xira tortdi. U yodida qolgan yorug' daqiqalarni eslashga urindi, biroq eslay olmadi. Xotiraga faqat nomlargina keldi: Denti, Parnell, Kleyn, Klongous. Ushoqday bolakayni kexsa ayol geografiyaga o'qitardi, shkaftda ayolning ikkita cho'tkasi bo'lardi. Keyin uni kollejga jo'natishdi. U birinchi marta ilohiy qovushish marosimida qatnashdi, kriket o'ynaganda kiyadigan qalpog'iga yashirgan shokoladlarni yedi, kasalxonaning tor palatasida devorda bilanglab o'ynayotgan olov aksiga termildi, xayolida qanday o'lishini, rektorning bashang libosda kelib, uning dafn marosimida xizmat qilishini, jasadini esa bosh arg'uvonzor xiyobon ortidagi chog'roqqina qabristonga dafn etishlarini tasavvur qildi. Biroq o'shanda u o'lmasdi. Parnell esa o'ldi. Na cherkovda ibodat, na dafn marosimi bo'ldi. Parnell o'lgani yo'q. G'alati, tasavvurga sig'maydi – u hayotdan ketdi-bordi, o'lgani yo'q, quyoshda erib bitdi yo koinotning allaqayerlarida sarson-sargardon kezib yuribdi! Ko'ziga bir soniya kichkina bolakay ko'rinib ketgan g'alati bo'ldi: ana u bo'zrang belbog'li kamzulda. Qo'llari yon cho'ntaklariga tiqilgan, cholvarchasi tizzasidan pastdagi bog'ichlari bilan aylantirib tortib bog'lab qo'yilgan”¹⁰.

Muhokama

Jeyms Joysning bolalik xotiralarini hayotning achchiq qismati uni oldida lang og'zini ochib kutib olayotganidan shahodat beradi. Ana shu mezon Irlandiya haqida o'z tasavvurlarini o'rtoqlashishga katta imkon beradi. 200 dan joyga ko'chib yashash, biror yerda muhim boshpanasi bo'lmagan Jeymsning hayoti mudomi silliq ketgan emas. Dunyo kezgan yozuvchi sifatida Yevropadagi tabaqalar orasidagi konfliktlar, hayotiy ziddiyatlar barchasi adib ijodida o'ziga xos qizil ip bo'lib o'tgani bejiz emas. Mif – timsoldir! Mif ana shu xotiradagi ong osti sezimlarining uyg'onish bergan ko'rinishidir. Busiz badiiy asar o'zgarish sodir etmasligini tushunib yetamiz. Nazar Eshonqul, Isajon Sultonning badiiy

⁷ Назар Эшонкул. Мендан “мен”дан менгача. –Т: “Академнашр”. 2014. –Б.338-339.

⁸ Назар Эшонкул. –Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви. –Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018. –Б..162.

⁹ Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. –Т, “Университет”. 2011. –Б.107.

¹⁰ Кўрсатилган адабиёт: –Б. 122-123.

to'qimalarida G'arbga taqlid ham, Sharqqa taqlid ham ochiq oydin ko'rinib turadi. Mana shu tamoyilning har bir epizodi hayotga muhabbat uyg'otadi. Hayotning rangin qiyofasi Joyslar avlodiga umuminsoniy mavzulami tuhfa etganligida deb hisoblaymiz.

Yozuvchi Nazar Eshonqul adabiy-estetik yo'sinda shunday g'oyalarni ilgari suradi: "Tushlar ong ostining voqelikni qabul qilish tilidir. Miflar yaratilgan paytda bani bosharning voqelikni qabul qilish tili shunday bo'lgan. Miflar shu tilda yaratilgan. Shuning uchun Yung miflardagi obrazlarni, voqelikni psixologik usul, shaxsning o'zini anglash jarayoni, ongosti kechinmalari sifatida qabul qilish taklif etadi. Shunga ko'ra, badiiyat va san'at tili aql mahsuli emas, balki ong soti kechinmalari, ongosti hissiyotlarining, qalbning tilidir. Yung ibtidoiy tasavvurlar bilan paydo bo'lgan obraz va timsollar qondan qonga o'tib, ommaviy ongosti kechinmalari sifatida yashab kelmoqda deydi. Biron ma'budvash obrazning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan, mo'jizalar qahramonliklarini, aslida, jismoniy qahramonlik emas, balki insonni vahimaga solgan sir, jumboq va yovuzlik ustidan shaxs ruhiyatining, shaxs ong ostining, ongning qahramonligi deb tushunish kerak"¹¹. Binbarin quyidagi Jeyms Joysning mifologik obrazlarning yangicha qiyofasini his qilamiz. Tush va ramzlar galariyasi romannning syujet va kompozision yaxlitligini ta'minlashga qaratiladi. N.Eshonqul ko'proq tush ramzidan foydalanib, N.ning qismati qarshisida chorasizligini talqin qiladi. Hayotda yovuz kuchlar qarshisida ojiz qolgan har ikki qahramon muhit qurboniga aylanadi. Jamiyat uni qabul qilishi uchun siyosiy platformani bosmaslik kerak edi. Bunday qurbonlik kinga va qanday naf keltirishi, asarda ishtirok etayotgan mahkamadagi odamlarning taimsolida ko'rish mumkin:

"Ikki kundan so'ng boshlanadigan sud N.ning taqdirini hal qilishi aniq bo'lib qoldi. N.o'zini nega sud qilishayotganini, unda nima ko'rinishini bilmasa ham, har qalay, dramaturg shunday dedi: Sizning taqdiringizni hal qiladi". Sud, dramaturgning aytishicha, jamoatchilikning ko'z oldida, ochiq tarzda, teatming zalida bo'lib o'tadi. "Ochiq tarzda o'tishi yomon, - dedi dramaturg. - Yopiq tarzda o'tganda hamkamlar bilan kelishish imkoni bo'ladi. Endi esa... Sizga hech qanday imkoniyat qolmadi". Dramaturg negadir sudning natijasidan N.dan ham ko'proq xavotirlanar, N.ning nega bamaylixotir yurganidan ajablanardi.

— Axir sizning hayotingiz hal bo'ladi. Sud qilishga qaror qilishibdimi, demak, masala jiddiy. Ishingiz obdon o'rganilgan, tergovchi sizni sud qilishlariga ruxsat bergan. Yana ochiq sud qilishga. Buning hammasi yomon alomat.

Dramaturg birdan bir narsani eslagandek, tizzasiga shapatiladi.

Menga qarang, mabodo adib sizga birornta rivoyatmi, masalmi aytib, mag'zini chaqishni so'ramaganmi? — dramaturg savol aralash N.ga tikildi.

Rivoyat aytgani yo'g'u, lekin boshdan o'tgan bir voqeani aytib berdi, — dedi N.uning xavotirlanishidan ajablanib, — Qandaydir jazoga tortilgan odamlar va tergovchining yoshligi haqida"¹².

Yozuvchi Nazar Eshonqul mifopoetik talqin qamrovida ikki jihatni nazarda tutadi. Birinchisi, biron voqelikni hikoya qilar ekan, birdaniga asosiy ijodiy maqsadini o'quvchiga anglatmaydi. Bosqichma-bosqich va aralash holda har ikki roman qahramonlari ruhiyati tergov va suhbat dialoglarida ochib beriladi. Ikkinchisi esa, N.ning qismati butun jamiyatning qismatiga aylanib ketishini miflar, ramzlar, ishoralar bilan tushuntira olganligida seziladi. Shu tariqa jamiyat hayotida inson "men"i kabi tushunchaning mifologik shakllanish bosqichlari ochiq qilinadi. Hikoya ichida hikoya, tahlil orqasidan tahlil berilar ekan, yozuvchining falsafiy-estetik va psixologik idroki yangicha rakursda mohiyatga aylanadi. Mifologik obrazlar negizida hayotning ikir-chikirlarigacha anglash imkoni beriladi. O'quvchi poetik talqinni darajalanish bosqichlarini o'zida jilolantiradi. Ramz va tush ob'yektiv borliq haqida odamga noma'lum xislatalradan voqif qiladi. Joys dunyosida yashash oson emasligini o'quvchi ham tushunib yetadi. Stiven Dedalus tabiatidagi ulkan po'rtanalar asta-sekin o'zini jiddiy tayyorgarlikka boshlaydi. U o'lim sari odimlar ekan, "men mavjudman" degan aqidani ilgari surishga kirishadi. Mavjudlik jumbug'i Jeyms Joys badiiyatining: mifologiyasining, romaniy tafakkurining o'q-tomiri bo'lsa, ne tong.

"Yozuvchi adabiy-estetik konsepsiyasi g'ayrat-matonatli, vatanparvar — yangi passionar shaxslargina yaratishi mumkin bo'lgan etnik-ijtimoiy biomaydon sog'inchi jihatidan qadimiy qahramonlar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. —Т., "Маънавият". 2010.

Kultegin, Gilgemish, Go'ro'g'li, Alpomishlarni ijod etgan xalq poetik tafakkuriga uyg'un. Zotan, N.ning o'limi ramziy ma'noda, tanazzulga uchragan epik makon (mustamlaka yurt)ni anglatadi. Demak, adib mazlum xalqni ergashtiruvchi qudratli kuch sohibini sog'inadi. Vorislik tamoyili unutilgan, takomillashuvdan begona jamiyat qonunlari ustidan istehzoli kuladi"¹³, - deya yozadi prof.I.Yoqubov. Keltirilgan lavhadan anglashiladiki, hayot murakkab sintagmalardan iborat. Uni yorqin ranglarda ko'ra bilish uchun inson juda katta bir o'zanni boshida bo'lishi lozim. Ayniqsa, murakkab hayot aqidalari Yevropa klassisizm adabiyotining yorqin namunalari ekanligini ifodalaydi. Jeyms Joysning iztiroblari behuda emasdi. U baxtli bo'lish, boshqalar kabi yashash muhimligini juda teran bilardi. Afsuski, uning yoshlikdan tahqirlanib voyaga yetishi katta mifologik maktabning yuzaga kelishiga zamin yaratib berdi. quyida Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romanidagi muhim lavhalarini talqin qilganimizda ham ro'y-rost ayonlashadi:

— Hurmatli hakamlar, — dedi N.o'zini nihoyatda aybdor sezib. — Qonunni haddan tashqari hurmat qilaman. Va hamisha unga amal qilib kelganman. Ammo men hozir shunday holatdamanki, nima gunoh qilganimni eslay olmayapman. Balkim qandaydir chalkashlik yuz bergandir?

— Gunohi yo'qlarni bizga jo'natishmaydi, — dedi jizzakilik bilan chapdagi.

— Shunday! — dedi o'ngdagisi. — Bu yerdagilar bekorchilikdan chivin qo'rib o'tiradi, deb o'ylayapsiz, chog'i.

— Aslo, — dedi N.birdan himoyaga o'tib. — Men sizlarning o'ta band odamlar ekaningizni, xizmatlaringiz nozik ekanini bilaman. Hatto sizlar men tufayli ovora bo'lganlaringizdan, qimmatli vaqtlaringizni men uchun sarflayotganingizdan xijolatdaman. Shu vaqtingizni biron muhimroq ishlarga sarflashingiz mumkin edi.

— Bu ishimiz muhim emas, deb kim aytdi sizga? — so'radi chapdagisi jizzakilik qilib.

— Muhim emas emish! — chiyilladi o'ngdagisi. U muhimligini bildirish uchun qandaydir o'ta salobatli gap aytmoqchi bo'ldi-yu, biroq bir necha so'zdan boshqasi og'zidan chiqmadi. — Muhim emas emish"¹⁴.

Keltirilgan parchada tergov hibsxonasida bo'lib o'tgan suhbat jamiyatdagi inson qadrining yo'qolib ketayotganligidan dalolat beradi Sobiq ittifoq yakka-hokimligida odamlar talqiri bilan hechning yo'qligidan, odamlarning zig'ircha ham odam qadri qolmaganidan shahodatdir. Adib sobiq mustabid tuzum bergan odamning ruhini va tirikligini yo'q qilishga qaratilgan kaltabin maqsadlarning qanday kuch bilan yuritilganini, beayb minglab odamlarning yostig'i quritilganini "Go'ro'g'li" romanida nozik o'xshatish va ramzlar bilan inkishof qiladi. Eslang, 1938-yil millatimiz boshiga tushgan musibatning dog'larini qanchalik his etish uchun odamda chidam, iroda, bardosh kerak. Binobarin ushbu metaforik-ramzlarning bir tomoni N.ismli murakkab obrazning mohiyatida, shaxsiyatida yaxlitlashadi. Hech bir vaqt hayotda inson o'zining mavjudligini isbotlash borasida bu qadar kuyunchaklik bilan idroklangan asarni o'qimasligi mumkin emas. XX asr hayotining haqiqiy manzarasi mana shu yerda jamdim.

Xulosa

Mazkur maqolada Jeyms Joys ijodiy tafakkuri va uning mifologik talqin uslubi o'zbek adabiyotidagi zamonaviy roman poetikasiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot ko'rsatkichi, mif — faqat ramz yoki timsol emas, balki inson ongini, shaxsiy kechinmalarni va jamiyat haqiqatini idrok etish vositasi sifatida universal estetik mezon vazifasini bajaradi.

Joys tafakkuridan oziqlangan o'zbek adiblari, xususan Nazar Eshonqul, mifologik talqin modusi orqali voqelik va shaxsiy ongni badiiy uslubda uyg'unlashtirishga erishgan. Asarlardagi ramzlar, tush motivlari va mifopoetik qatlam shaxs "men"ining mavjudlik izlanishlari va jamiyat bilan bog'liqligini ifodalaydi. Shu bilan birga, badiiy tafakkur, dialektik aloqada ishlangan konflikt va sujet elementlari orqali o'quvchiga inson hayoti, tarixiy tajriba va milliy o'zlikni anglash imkonini beradi.

Natijada, maqolada aniqlanishicha, mifologik talqin modusi o'zbek romanida nafaqat badiiy, balki falsafiy-estetik konsept sifatida shakllangan bo'lib, Jeyms Joys ijodiy olamining o'zbek adabiyotiga tatbiq etilishi zamonaviy yozuvchilarning ijodiy erkinligi va milliy koloritni yangicha talqin etishiga imkon yaratgan.

¹¹ Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. —Т., "Академнашр". 2018. —Б.86-87.

¹² Nazar Eshonqul. G'ur'ug'li e'xud ha'et suvi. —Т., F.Fulom 2018. —Б.235-236.

¹³ E'qubov I. Mустақиллик даври ўзбек романилари поэтикаси. Филол.фан.док.дисс.автореферати. —Т., 2018. —Б.25.

¹⁴ Nazar Eshonqul. G'ur'ug'li e'xud ha'et suvi. —Т., F.Fulom nomiдаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. 2018. —Б.207.

3. Жеймс Жойс. Мусаввирнинг ёшликдаги шамойили. –Т: “Академнашр”. 2021.
4. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. –Т, “Университет”. 2011.
5. Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. –Т., “Академнашр”. 2018.
6. Назар Эшонкул. Гўрўгли ёхуд ҳаёт суви. –Т., F.Фуллом 2018.
7. Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол.фан.док.дисс.автореферати. –Т., 2018.
8. Назар Эшонкул. Гўрўгли ёхуд ҳаёт суви. –Т., F.Фуллом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. 2018.
9. <https://ru.ruwiki.ru/wiki/>